



EKOLOGIYA FAOLIYAT ISHLANMALARI

YOZ DAVRI

O'RTA GURUH



“TASDIQLAYMAN”

_____-MTT direktori

Yoz davri o‘rta guruhlarga ekologiya faoliyatlari uchun ish reja

HAFTA KUNLARI	MAVZU
IYUN	
1-hafta	BOG‘CHADAGI BOG‘IMIZGA SAYR
2-hafta	MEVA VA SABZAVOTLARNI AJRATAMIZ
3-hafta	JONSIZ TABIAT (QUM VA TOSH) BILAN TANISHTIRISH
4-hafta	MENING BOG‘CHAMDAGI GULZORLAR
IYUL	
1-hafta	YER MAYDONCHASI ATROFINI KUZATISH
2-hafta	UY HAYVONLARINIAJRATISHGA O‘RGATISH
3-hafta	TABIATNI ASRA
4-hafta	YOMG‘IRNI TABIATGA FOYDASI
AVGUST	
1-hafta	XONA O‘SIMLIKLARIDAN – KAKTUSNI KUZATISH
2-hafta	HAYVONOT OLAMIDA
3-hafta	QURBAQANI KUZATISH
4-hafta	QUSHLARNI KUZATISH

BOG'CHADAGI BOG'IMIZGA SAYR

Maqsad: ekologik tarbiyani rivojlantirish, bolalarga har xil mevalar, ularning ta'mi, tashqi ko'rinishi, rangi, shakli, katta-kichikligi, mazasi haqida tushuncha berish.

Sayrga tayyorlanish. Bu sayr oltin kuzda, mevalar g'arq pishgan vaqtda olmazorga uyushtiriladi.

Kutilayotgan natija:

Bolalar bog' yozda qanday bo'lishini, u yerda qanday mevalar borligi, ularning nomi, rangi, shakli haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Sayrning borishi. Boqqa kirish bilanoq bolalar diqqati shoxlari sersharbat mevalarning mo'lligidan egilib, yerga tegay-tegay deb turgan olmalarga qaratilishi, ularning go'zalligidan zavqlanish lozim. Tarbiyani bolalardan bular qanday mevalar ekanligini so'raydi va olma mevalarini terib, ohistalik bilan qutilarga joylayotgan terimchilar terishini bir daqiqa kuzatib o'tirish kerak bo'ladi. Bolalardan bu olmalar nima maqsadda qutilarga joylanayotganini so'raydi

Bolalardan «Qutilardagi hamma olmalar bir xilmi?», deb so'raydi. Tarbiyachi bolalar bilan oltin kuzda ularning nomini, rangini, katta-kichikligi, shaklini aniqlab oladi. Keyin bolalar bog' yozda bo'lgan olmalarini daraxtlardan izlashadi. Bolalar olma bir necha navli bo'lishini bilib olishi uchun bog'da esa faqat bir xil navli olmalar bo'lishini bilib oladilar.

Tarbiyachi bolalarning shifobaxshligi, haqida so'zlab olma sog'liqni mustahkamlashi, olmadan tashqari qutilarda qutilar solinishi, sharbatlar tayyorlanishi haqida gapiradi.

Bolalar to'g'ri o'qib, qutilarga solishadi, bog'da ishlayotganlar bolalarni olmalar bilan ma'mur bo'lgan sayrxoxirida bolalar olmazorning go'zalligini yana bir bor tomosha qilib, zavqlanishni o'z ichiga oladi. Sayrdan olingan taassurotlarni «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top», «Rangiga qarab top» kabi ta'limiy o'yinlarda, tasviriylar faoliyat faoliyatlari orqali o'z ichiga oladi.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun beriladigan topshiriqlar:

- Qaerga sayrga bordik?
- Bolalar, olmalarning qanday xilmi bo'ldi?
- Qanday olma daraxtlarini kuzatdik?
- Terimchilar olmani qanday teryaptilar?
- Nima uchun ohistalik bilan teryaptilar?
- Qutilardagi hamma olmalar bir xilmi?
- Qanday o'yin o'ynadik?



MEVA VA SABZAVOTLARNI AJRATAMIZ

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarni meva va sabzavotlarni farqlashga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: ekologik tarbiyani rivojlantirish, bolalarda ijodkorlikni, tasavvur qilishni rivojlantirish;

Tarbiyaviy: jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: AKT, meva va sabzavotlar.

Ta'limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, bolajonlar. Hozir men sizlarga meva va poliz mahsulotlari haqida she'rlar aytib beraman, sizlar esa ularning meva yoki poliz ekini ekanligini aytib berishinglar kerak. Bu she'r sevimli shoirimiz Anvar Obidjon qalamiga mansub.

Men turaman

Bukib

Kam

Yotaman:

Yotaman:

Yotaman:

Uzib

Birin

Bolajaklar

Chug'urlab

Meni bog'dan

O'g'irlab,

Qo'yinlarga

Urishar.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, bu she'rda qanday gap ketyapti?

Bolalar: - Bu she'rda shaftoli yoki poliz gap ketyapti.

Tarbiyachi: - Shaftoli mevami yoki poliz?

Bolalar: - Shaftoli - meva.

Tarbiyachi: - To'g'ri. Endi esa Anvar Obidjon qalamiga mansub bolgan "Qovun" she'rini o'qib beraman.

QOVUN

Anvar Obidjon

Obinovvot

Qovunman.

Bitta tishlab

Ovun, ma.

Nega bo'ldim

Men nomdor?

Chunki

Cho'ponim guldor.

Yonbosh qilib

Yotaman,

Shirin o'yga

Botaman.

Xayolimda

Odamlar

Bozorda

Meni tanlar.

Tarbiyachi: - Bolalar qovun mevami yoki poliz mahsuloti?

Bolalar: - Qovun poliz mahsuloti sanaladi.



Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi esa sizlar bilan “ortiqchasini top” didaktik o‘yinini o‘ynaymiz. Monitorga diqqatingizni qaring. U yerda meva va sabzavotlar ko‘rsatiladi. Sizlar esa nima ortiqchaligini topib, izohlab berishingiz kerak.

(Monitorda olma, nok, uzum, pomidor surati ko‘rsatiladi.)

1-bola: - Bu yerda pomidor ortiqcha. Chunki olma, nok, uzum - meva pomidor esa sabzavot.

(Monitorda shaftoli, anjir, piyoz, banan surati ko‘rsatiladi.)

2-bola: - Bu yerda piyoz ortiqcha, shaftoli, anjir va banan meva, piyoz esa sabzavot hisoblanadi.

(Monitorda kartoshka, piyoz, sabzi, gilos rasmi ko‘rsatiladi.)

3-bola: - Bu yerda gilos ortiqcha. Kartoshka, piyoz, sabzi - sabzavot, gilos esa meva hisoblanadi.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o‘tkazamiz.

Assalom, ey quyosh bobo! **(Qo‘llar tepaga ko‘tariladi.)**

Assalom, ey ko‘m ko‘k osmon! **(Barmoqlar qimirlatiladi.)**

Assalom, ey tabiat! **(Qo‘l ko‘ksida ta‘zim qilinadi.)**

Assalom, ey daraxtlar! **(Qomat tik tutiladi.)**

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi esa men sizlarga meva va sabzavotlar haqida ertak aytib beraman. Dalaning bir tomonida sabzavotlar o‘sarkan, ikkinchi tomonida esa mevalar. Mevalarga bog‘bon bobo, sabzavotlarga dehqon bobo qarab, ulami sug‘orib, parvarishlab turisharkan. Bir kuni bir sho‘x bola adashib bog‘ga kirib qolibdi. U bog‘da g‘arq pishgan mevalarni ko‘rib xursand bo‘libdi. Daraxtdan olma uzib olib yebdi, ketidan uzum yeb, ustidan ariqda shildirab oqayotgan muzdek suvdan ichibdi. Bog‘dan zerikkan bola endi polizga o‘tibdi. U yerda pishib turgan tarvuzlar bolaning ishtahasini ochib yuboribdi, azbaroyi yegisi kelganidan bitta tarvuzni yerga urgan ekan, u shart ikkiga bo‘linibdi. Tarvuz yeyayotgan bolaning to‘satdan qorni qattiq og‘rib qolibdi. Og‘riqning zo‘ridan voy-voylab yerga o‘tirib qolibdi. Baxtiga bog‘bon kelib qolibdi. Uni darrov shifoxonaga olib boribdi. Shifokor esa bolaga dori beribdi va: “Bolajon, endi hech qachon meva va sabzavot yeganingdan keyin muzdek suv ichmagin, aks holda, qorning yana og‘rib qoladi”, - deb tayinlabdi. Bolajonlar, sizlar ham meva va sabzavot yegandan keyin qaynamagan suv ichmanglar, xo‘pmi?


Bolalar: - Xo‘p.

Tarbiyachi: - Bolalar, endi esa mana bu savollarga javob beringlar:

Karam, lavlagi, sholg‘om - ... (sabzavotlar)

O‘rik, olxo‘ri, olcha - ... (mevalar)

Meva qayerda o‘sadi, sabzavot qayerda o‘sadi?



veb-saytimiz: Zokirjon.com

**Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.**

Zokirjon Admin bilan

**+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab
telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**

**O'rta guruhlariga yoz davri ekologiya
faoliyat ishlanmalarini to'liq holda olish
uchun
telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.**

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.**

Internet veb-saytlarga joylamang.

**Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**